

“Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olishning ustuvor vazifalari”

// 06.10.2021

https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korrupciya_qarshi_kurashish

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olishning ustuvor vazifalari” mavzusida navbatdagi seminar o'tkazildi.

Tadbirda “O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi a'zolari, departament, boshqarma, bo'lim boshliqlari va O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tezkor xodimi F.Yangiboev ishtirok etdi.

“O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi J.Mirzamahmudov yig'ilish ishtirokchilarini jamiyat tizimida “Yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo'yicha 2020-2021 yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasi”da bir qator tadbirlar belgilanganligi va ularning ijrosini ta'minlash maqsadida “O'zkimyosanoat” AJda Komplains xizmati tashkil etilgani, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 10dan ortiq ichki me'yoriy hujjatlar tasdiqlanganligi va ular bilan o'rnatilgan tartibda jamiyat xodimlari tanishtirilganligi va doimiy ravishda elektron tarzda axborot olish uchun jamiyatning ichki tarmog'i va rasmiy veb-saytida joylashtirilganligini ma'lum qildi.

Ushbu yo'nalishda olib borilgan ishlar natijasida tizim korxonalarida 26 ta xizmat surishtiruvlari o'tkazilganligi, 4,5 mlrd. so'mdan ortiq tovar moddiy boyliklarini talon-taroj qilinishning oldi olinganligi, 1,7 mlrd. so'm mablag'larni tejalganligi qayd etildi. Shu bilan birga jamiyat faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash sohasida joriy yil davomida ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytda jami sohaga oid 25 ta materiallar joylashtirilganligi ta'kidlandi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tezkor xodimi F.Yangiboev so'z olib, DXXning o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to'g'risidagi axborotni yig'ishi hamda tahlil qilishi, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvni va dastlabki tergovni amalga oshirishi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldi olinishi, aniqlanishi va ularga chek qo'yilishini ta'minlash, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha bevosita “O'zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari misolida batafsil ma'lumot berib o'tdi.

Yig'ilish so'nggida korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda asosiy kuch jamoatchilik ekanligi, shu bois jamiyatda bu illatlarga nisbatan immunitetni shakllantirish, ularning salbiy oqibatlarini anglab yetgan holda, shaxsiy mas'uliyatni oshirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishga o'z hissamizni qo'shishimiz lozimligi ta'kidlandi.